

## О‘ЗBEK TILI VA XALQINING SHAKLLANISHIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O‘RNI

*Jo‘rayeva Laylo Jiyanqulovna*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“O‘zbek va rus tillari” kafedrasida o‘qituvchisi,*

*BuxDU mustaqil izlanuvchisi*

[\*laylojorayeva2096@gmail.com\*](mailto:laylojorayeva2096@gmail.com)

*Sultonova Dilorom Ilhomovna*

*Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek va rus*

*tillari kafedrasida 1- bosqich talabasi*

[\*sultandilorom40@gmail.com\*](mailto:sultandilorom40@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” shiori ostida bajarilgan ishlar, davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Intellektual salohiyat, jahon axborot tarmog‘i, “Taraqqiyot strategiyasi” o‘zbek tili, so‘z, adabiyot namoyondalari, tarix, lug‘at, adabiy til, turkiy qavmlar tili, xalqning yozuvi

Asrlar davomida bizning ona tilimiz o‘zbek tili bo‘lib kelgan. Tarixga nazar tashlasak qadimgi turkiy til turkiy qavmlarning o‘zlari kabi ko‘hna zamonlardan buyon mavjuddir (biz tilning og‘zaki shaklini nazarda tutmaymiz, tilning bu shaklini adabiy til deb atash to‘g‘ri emas). Yevropa olimlaridan ba‘zilari qadimgi turkiy urug‘larning paydo bo‘lgan davrini miloddan oldingi o‘ninchi ming yillikka olib borib bog‘laydilar. Demak, turkiy og‘zaki til ham shu davrga borib taqaladi. Ammo bu degani - ilk yozuv yodgorliklari (miloddan oldingi IV -V asrlar) paydo bo‘lmasdan oldin ham qadimgi turkiy adabiy til mavjud edi, degan qarash to‘g‘ri emas. Bunday taxminlarning ilmiy asoslari yetarli emas. Adabiy til faqat yozma matnlarda aks etadi, yozuv paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki yetib kelgan voqealar adabiy tilning m ezonlarini aslo belgilay olmaydi. O‘zbek tilining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so‘zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo‘lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarining birlashishi bilan bog‘liq edi. Buni orasida katta farq bo‘lgan o‘zbek lahjasidagi dialektlarning ko‘pligidan bilish mumkin.

O‘zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo‘lish mumkin: qadimgi turkiy, qadimgi o‘zbek va zamonaviy o‘zbek tili davrlari.

**Qadimgi turkiy til.** Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg‘oqlari bo‘ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo‘lib, uning asosida keyinchalik ko‘plab Osiyo tillari paydo bo‘lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o‘sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.

**Qadimgi o‘zbek tili.** XI-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu vaqt ichida o‘zbek tili ko‘plab qo‘shni tillar ta‘sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo‘shdi. Navoiy asarlari orqali tilimiz o‘zligini, o‘zini topdi, hamda unda keltirilgan bir qancha xalqimizning urug‘-qabila nomlari xalqimizning uzoq tarixiy jarayonga oid ekanligini ko‘rsatadi. Misol tariqasida quyidagi namunani keltirish mumkin:

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘liyvash,  
Bekka qipchoqu og‘ar, shahg‘a qiyotu bilgut.[3,54]

Bayt undalma orqali boshlanib, shoir o‘z-o‘ziga murojaat qilish orqali Ey Navoiy manga bas ul go‘zal lo‘liga o‘xshash, bekka qipchoq, shohga qiyotu bilgut deyilmoqda. Ushbu baytda xalq-urug‘ nomlarining mazmunan zidlanganini uchratish mumkin. Kontekstual antonimiya hodisasi yuzaga chiqqan. Baytdagi qipchoq, qiyot, bilgut xabi nomlar o‘zbek xalqining etnik tarkibidagi katta ahamiyatga ega bo‘lgan nomlar sanaladi. ANATILda Qipchoq- qadimiy turkiy urug‘lardan biri ekanligi aytilgan. O‘TILda esa quyidagicha izohlangan: QIPChOQ 1 Ko‘chmanchi turkiy xalqning nomi (q. qipchoqlar). 2 Shu xalq, millatga mansub. Qipchoq tillari. QIPChOQLAR 11-15-asrlarda Uralbo‘yi va Volgabo‘yi dashtlarida va hozirgi Qozog‘istonning markaziy va g‘arbiy qismlarida yashagan, keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan ko‘chmanchi turkiy xalq. 2 O‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy urug‘-qabilalardan biri.

O‘TILda bilkut xalq nomi quyidagicha izohlangan. BILKUT etn. Qadimiy turkiy qabilalardan birining nomi. O‘sha kezlarda ulug‘ bekka otaliq qilib turklarning bilkut qabilasidan chiqqan yirik amir Shohmalik tayinlanadi. B. Ahmedov, Ulug‘bek.

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini  
Kim, berur ko‘nglumga holo molish ul sho‘xi malash.[3,216]

Bayt undalma orqali boshlangan bo‘lib, Ey Navoiy nima qilay tarxon bilan barlosni kim berur ko‘nglimga holo molish ul sho‘xi malash deyilgan. Ushbu baytdagi

tarxon hamda barlos leksemalari xalq-urug' nomlarini anglatuvchi leksemalar bo'lib, ular qadimiy elat nomlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

ANATILda tarxon leksemasi quyidagicha izohlangan: Tarxon- podshoh tomonidan beriladigan unvon bo'lib, unga sazovor bo'lgan kishilar soliqdan urushga safarbarlikdan ozod qilingan; o'zbek elatlaridan birining nomi:

BARLOS tar. etn. 1 Temuriylar va boburiylar davrida asosan O'rta Osiyoning janubiy hududlarida, qisman Afg'oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan o'zbek qabilalaridan biri. Ha.. biz asli shahrisabzlik, barlos urug'laridanmiz. Otamiz sarboz bo'lganlar. Mirmuhsin, Me'mor. U shundayki, yaxshi tig'ni dilrabo ma'shuqasidan afzal ko'radi, o'zi barlos bekozodalardan. Oybek, Navoiy. 2 etn. Barlos qabilasiga mansub shaxs. Beklarbegi Muzaffar barlos podshohga yaqin, eng yuqori o'rinni ishg'ol etdi. Oybek, Navoiy. Erta tongda borgohlar yig'ib olinib, sarkarda Amir Dovud barlos oldinda, qo'shin yana yo'lga tushdi. Mirmuhsin, Me'mor.

**Hozirgi o'zbek tili.** XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lahjada gapirishgan va uning karnaylari sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o'zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o'tgan asrning 20-yillarida "sart" so'zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o'zbeklar deb nomlana boshladi. Adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq:1. Quyidagilar:**

**Prezidentimiz o'zbek tili sifatini oshirish bo'yicha bir nechta yangi takliflar kiritdilar bular:** Fanlar akademiyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun quyidagi o'quv lug'atlarini yaratish choralari ko'rsin, shu jumladan: ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning to'ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida); "O'zbek tilining imlo lug'ati"; "O'zbek tili sinonimlari lug'ati"; "O'zbek tili

sinonimlarining katta izohli lug‘ati”; “O‘zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug‘ati”; “O‘zbek tili omonimlari lug‘ati” kabi keng qamrovli lug‘atlar nashr etish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb muammolardir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Milliy tilimizga, ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o‘rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma’no fikrlarni eslaylik: **“Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur”** (M.Behbudiy). E‘tibor beryapsizmi, milliy tilni yo‘qotmak millat tilini yo‘qotmakka qiyoslanmoqda. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so‘zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Til – millat ko‘zgusi, ma’naviyat sarchashmasidir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov bejizga ona tilimizni: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir” deya e‘tirof qilmagan. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

Rahmonov, Nasimxon. O‘zbek tili tarixi: filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. -T, 2006.

Q. Sodiqov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2009.

Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent, 2006.

Abdurahmonov G ‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -Toshkent, 1982

LEX.UZ <https://lex.uz> › docs PF-6084-сoн 20.10.2020. Mamlakatimizda o‘zbek tilining nufuzini yanada oshirish to‘g‘risidagi qonun.

Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 39-43.